

**NAZAROVA DILFUZA NORMURATOVNA  
TO‘RAQULOVA MALIKA ESHQUVVATOVNA  
SATTOROV ISROIL ABDUJABBOROVICH  
SHAMSIYEVA DILNOZA ELMUROT QIZI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi*

*3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari, bu davrdagi aqliy va emotsional rivojlanish, shaxs xususiyatlari yoritiladi. Ularning ong va dunyoqarashining shakllanishi, o‘spirinlik yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish masalalariga to‘xtalinadi*

**Kalit so‘zlar:** *yetakchi faoliyat, emotsional rivojlanish, yangi psixologik tuzilma, pedagogika, psixologiya, ilk o‘spirinlik, o‘spirinlik, intellektual rivojlanish, muloqot*

### **Ilk o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari**

- Ilk o‘spirinlik davri «**kamolot bo‘sag‘asi**” deb ta‘riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Psixologiya fani o‘spirinlik muammosini kompleks o‘rganishni da‘vat etadi.
- Ilk o‘spirinlik Yoshidagi bolalar bu 15 Yoshdan 17-18 Yoshgacha bo‘lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilaridir
- **O‘spirinlik** – bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan etilishi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma‘naviy sifatleri tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o‘qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch

hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

- Ilk o'spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to'xtalib o'tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatleri rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini bir qadar belgilab beradi

- Ilk o'spirinlarga xos xususiyatlardan biri hayotiy rejalarining shakllanishidir. Bir tomondan hayotiy rejalar shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni umumlashtirishi va mustahkamlashi natijasida vujudga keladi. Boshqa tomondan maqsad va motivlarning qonkretlashishi jarayoni ro'y berad

- Ilk o'spirinlarning bo'lajak kasblari haqida xabardorlik darajasi ham muhim hisoblanadi. Yigit va qizlar ular tanlaydigan kasblar doirasini, har bir kasbning aniq xususiyatlarini bilmaganliklari uchun kasbni tasodifan tanlaydilar. Kasb haqida ma'lumotga ega emaslik oliy o'quv yurtiga kirganlar orasida ham uchraydi. "Bo'lg'usi kasbingizning xarakteri, mazmuni va sharoitidan xabardormisiz?" degan savolga talabalarning to'rtidan bir qismigina "ha" javobini berishgan. Inson kasb tanlayotgan vaqtida qanchalik kichik bo'lsa, uning kasb tanlashi shunchalik mustaqil bo'lmaydi, shaxsiy qadriyatlar tizimi asosida emas, ma'lumotlarning etarli bo'lmaganligi tufayli kimningdir tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi

- Kasb tanlash ma'lum shaxsiy intilish darajasini aks ettiradi. U o'z ob'ektiv imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini baholashdan iborat. Bundan tashqari unga sub'ekt tomonidan anglanmaydigan kasbga qo'yiladigan talablar ham ta'sir qiladi. 15-17 Yoshli yigit va qizlarning intilish darajasi ko'pincha yuqori bo'ladi. Bu normal va foydali holat bo'lib, Yoshlarni yanada izlanishga va qiyinchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Dastlabki hayotiy muvaffaqiyatsizlik tufayli, masalan oliy o'quv yurtiga topshirishga urinishdan kelib chiqadigan jarohatdan qanday qutulish mumkin?

- Katta yoshdagi maktab o'quvchilaridan biror o'quv faniga ishtirok natijasida ularga har xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Yuqori sinf

o`quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, itse`dodlari asosida tanlagan kasblariga to`g`ri yo`naltirish o`spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. O`smirlarga o`qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o`z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e`tibor berishlari kerak

• V. A. Krutetskiy o`spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi:

• a) biror o`quv faniga qiziqish;

• b) vatanga foyda keltirish istagi (o`ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan holda);

• v) shaxsiy qobiliyatini ro`kach qilish;

• g) oilaviy an`analarga rioya etish (vorislik);

• d) do`stlari va o`rtoqlariga ergashish;

• e) ish joyi yoki o`quv yurtining uyiga yaqinligi;

• f) moddiy ta`minlanishining yaxshi ekani;

• g) o`quv yurti ko`rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo`naltirishning usul va vositalari ishlab chiqilgan. E. A. Klimov kasbga yo`naltirish uchun kasb turlarini «**inson-tabiat**», «**inson-texnika**», «**inson-inson**», «**inson-badiiy obraz**» singari komplekslarni tavsiya qiladi. Kasb tanlashga yo`llash va kasblarni targ`ib qilish usullaridan yana biri – ko`rsatmali vositalar, ya`ni fototsendlardan, kitoblar ko`rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulidan, naqqoshlik va texnika to`garagi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashqari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg`otish mumkin

Ilk o`spirinlik davrining psixologik xususiyatlaridan biri bu jismoniy jihatdan voyaga yetishi, maktabni bitirgandan keyin mustaqil hayot kechirish, ishlab chiqarishda mehnat qilishi va oliy o`quv yurtida o`qishi uchun yetarli bo`ladigan g`oyaviy va ma`naviy yetuklik darajasiga erishadi. Bu davrning eng muhim ko`rsatkichlaridan biri fuqarolik pasportini olishi, saylash va saylanish huquqini qo`lga kiritilishi bularning barchasi uning fuqaro sifatida yetukligining

ko'rsatkichidir. O'spirinlik- bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi uning ijtimoiy jihatdan yetilishi o'z taqdirini o'zi hal qilishi ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri fuqarolik va vatanparvarlik kabi ma'naviy sifatlari tarkib topadigan davridir. Ilk o'spirinlik davrida mehnat va o'qish asosiy faoliyat sifatida muhim o'rin egallaydi. Ilk o'spirinlik yoshida jo'shqin kuch-g'ayrat shijoat mardlik katta va qahramonona ishlarga romantk ravishda intilishlari avj olgan yosh davridir. Ilk o'spirinlik davrida psixik rivojlanishning xarakterga keltiruvchi kuch maktab jamoasi va o'quv faoliyati tomonidan qo'yiladigan talablar darajasining keskin ortishi bilan u erishgan psixik rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilikdan iboratdir. Bu qarama-qarshiliklar ilk o'spirinlik davrida o'quvchilarning ahloqiy, aqliy va ijodiy kuchlarini intensiv taraqqiyoti yo'li bilan hal etiladi. Jismoniy rivojlanishining xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bunda keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini bir qadar belgilab beradi.

Birinchiidan bu o'rinda kasb tanlash nazarda tutiladi bu esa ma'lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy rivojlanish xususiyatlariga ham bog'liqdir.

Ikkinchiidan jinslarning o'zaro mayli ta'sir ko'rsatadiki bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o'ynaydi. O'zining jismoniy kuchini va jozibadorligini sog'omligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o'ziga ishonch, daddillik, tetiklik, optimizm va hushchaqchaqlik singari sifatlarning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy sog'lomlik, kuch-quvvat va epchil harakat qilish ishchanlik qobiliyati, bir qator mehnat ko'nikmalari va malakalarini vujudga keltirishga yordam beradi va kasb tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Bunday yigit va qizlar o'zlari tanlagan kasblarini muvaffaqiyat bilan egallashlariga va o'zlari yoqtirgan ish bilan shug'ullanishlariga ishonadilar. Aksincha o'zining jismoniy jihatdan ojizligini, mukammal emasligini va bolalikka xos xususiyatlarni sezish esa ilk o'spirinlikda ba'zan og'ir his-tuyg'ularni paydo qiladi, ularning ruhini ezadi ularda tushkunlikka berilish, qo'rqqoqlik, o'z kuchlariga ishonmaslik, biqiqlik, individualizm kabi

xususiyatlarning vujudga kelishiga ta'sir etadi. SHu sababli ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchi shaxsining tarkib topishiga oid xususiyatlarni o'rganish vaqtida jismoniy rivojlanish omillarni ham hisobga olish zarurdir.

Ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlaridan biri bu jismoniy jihatdan voyaga yetishi, maktabni bitirgandan keyin mustaqil hayot kechirish, ishlab chiqarishda mehnat qilishi va oliy o'quv yurtida o'qishi uchun yetarli bo'ladigan g'oyaviy va ma'naviy yetuklik darajasiga erishadi. Bu davrning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri fuqarolik pasportini olishi, saylash va saylanish huquqini qo'lga kiritilishi bularning barchasi uning fuqaro sifatida yetukligining ko'rsatkichidir. O'spirinlik- bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi uning ijtimoiy jihatdan yetilishi o'z taqdirini o'zi hal qilishi ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri fuqarolik va vatanparvarlik kabi ma'naviy sifatlari tarkib topadigan davridir. Ilk o'spirinlik davrida mehnat va o'qish asosiy faoliyat sifatida muhim o'rin egallaydi. Ilk o'spirinlik yoshida jo'shqin kuch-g'ayrat shijoat mardlik katta va qahramonona ishlarga romantk ravishda intilishlari avj olgan yosh davridir. Ilk o'spirinlik davrida psixik rivojlanishning xarakterga keltiruvchi kuch maktab jamoasi va o'quv faoliyati tomonidan qo'yiladigan talablar darajasining keskin ortishi bilan u erishgan psixik rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilikdan iboratdir. Bu qarama-qarshiliklar ilk o'spirinlik davrida o'quvchilarning ahloqiy, aqliy va ijodiy kuchlarini intensiv taraqqiyoti yo'li bilan hal etiladi. Jismoniy rivojlanishining xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bunda keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini bir qadar belgilab beradi.

Birinchiidan bu o'rinda kasb tanlash nazarda tutiladi bu esa ma'lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy rivojlanish xususiyatlariga ham bog'liqdir.

Ikkinchiidan jinslarning o'zaro mayli ta'sir ko'rsatadiki bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o'ynaydi. O'zining jismoniy kuchini va jozibadorligini sog'omligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o'ziga ishonch, daddillik, tetiklik, optimizm va hushchaqchqlik singari

sifatlarining tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy sog'lomlik, kuch-quvvat va ephil harakat qilish ishchanlik qobiliyati, bir qator mehnat ko'nikmalari va malakalarini vujudga keltirishga yordam beradi va kasb tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Bunday yigit va qizlar o'zlari tanlagan kasblarini muvaffaqiyat bilan egallashlariga va o'zlari yoqtirgan ish bilan shug'ullanishlariga ishonadilar. Aksincha o'zining jismoniy jihatdan ojizligini, mukammal emasligini va bolalikka xos xususiyatlarni sezish esa ilk o'spirinlikda ba'zan og'ir his-tuyg'ularni paydo qiladi, ularning ruhini ezadi ularda tushkunlikka berilish, qo'rqqoqlik, o'z kuchlariga ishonmaslik, biqiqlik, individualizm kabi xususiyatlarning vujudga kelishiga ta'sir etadi. SHu sababli ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchi shaxsining tarkib topishiga oid xususiyatlarni o'rganish vaqtida jismoniy rivojlanish omillarni ham hisobga olish zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'oziyev E Psixologiya T.1994
2. Krutetskiy V.A. Psixologiya obucheniya I vospitaniya shkolkov . M. 1976
3. Kazakov V.G.Psixologiya M.1989
4. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O 'YINCHOQLARNING TA'SIRI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.
5. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
6. Melikboboyevich, S. U. (2024). MEASURES TO PREVENT AGGRESSIVE ATTITUDES BY THE TEACHER TO THE STUDENT FOR LATING TO THE LESSONS. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 127-134.
7. Abdulkarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.

8. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). EDUCATOR'S SKILL IN ELIMINATING AGGRESSIVE SITUATIONS OF CHILDREN RAISED IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 611-616.
9. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O 'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O 'YINNING AHAMIYATI. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 85-92.